

ZENOBIIYA - QADIM TADMURNING TIMSOLIGA AYLANGAN MALIKA

Qo'chqorov Temurbek Baxromjon o'g'li

Oriental Universiteti o'qituvchisi

Yo'ldoshaliyeva Muslimaxon Qodirjon qizi

*Oriental Universiteti talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 04.11.2025**Revised: 05.11.2025**Accepted: 06.11.2025*

Ushbu maqola Tadmur malikasi Zenobiyaning hayoti va merosiga bag'ishlangan. U o'z davrinining eng kuchli ayol hukmdorlaridan biri sifatida siyosat, madaniyat va ilm sohasida katta iz qoldirgan shaxs sifatida tahlil qiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*Zenobiya, Tadmur,
Palmira, Rim
imperiyasi, Suriya
tarixi, ayol hukmdorlar,
Sharq sivilizatsiyasi,
Madaniy meros.maqsad*

Kirish

Insoniyat tarixida kuch, donolik va jasorat uyg'unlashgan shaxslar ko'p, biroq ularning barchasi orasida o'zining siyosiy salohiyati, madaniyati va aql-idroki bilan ajralib turgan ayol hukmdorlar kam. Ana shunday siymolardan biri - Tadmur malikasi Zenobiyadir. U nafaqat o'z davrining qudratli hukmdori, balki Sharq tarixining eng ta'sirli ayol shaxslardan biridir.

Zenobiya (to'liq ismi Septimiya Zenobiya) taxminan milodiy 240-yillarda Tadmurda tug'ilgan. Tarixiy manbalarda u yunon, arab, lotin va oromiy tillarini mukammal bilgan, yuqori darajada ta'lim olgan ayol sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, u tarix, falsafa va adabiyot fanlariga katta qiziqish bildirgan. U Palmira(hozirgi Tadmur, Suriya) shaxrining

so'ngi hukmdori bo'lgan. Bu Shahar Rim imperiyasi davrida, milodiy III asrda gullab yashnagan.

Zenobiya o'zining kuch-qudrati va zakovati bilan reining - Rimga tobe bo'lgan mahalliy hukmdor Odenat vafotidan so'ng, ularning o'g'li Vabalat (yoki Vaballatus) nomidan regent (muvaqqat hokim) sifatida taxtni egalladi.

U adolatli, dono, qat'iyatli, bilimli va go'zal ayol sifatida nom qozongan. Uning hukmronligi davrida Palmira kuchli madaniy va iqtisodiy markazga aylandi. U o'z qo'shinlari yordamida hududini kengaytirib, hatto Misrni ham bosib oldi. Biroq uning mustaqillik harakati Rim imperatori Aurelian tomonidan bostirildi. 270-yilda Aureliang hokimiyatga kelib, 272-yilda Palmirani zabt etdi. Aytishlaricha, Aurelian Zenobiyaning Rimga olib kelgan, lekin unga hurmat bilan munosabatda bo'lgan va hayotining qolgan qismini Rimda o'tkazishiga ruxsat bergan.

Zenobiya kim edi?

Zenobiya o'z davrining eng buyuk jangchi malikalaridan biri sifatida tanilgan. U Rim imperiyasining kuchiga qarshi chiqqan jasur ayol edi. 271-272-yillarga kelib, u Rimga bo'ysunmagan mustaqil davlat yaratishga muvaffaq bo'ldi. Uning davlati, Palmira, Suriya va Mesopotamiya chegaralarida joylashgan bo'lib, strategik savdo yo'llarini nazorat qilgan. Zenobiya Rimning kuchsizlanayotgan davridan foydalanib, o'z davlatini kengaytirishga kirishgan.

Zenobiya tarixdagi mashhur malikalar - Assuriyalik Semiramida, Misrlik Nitokris, Kleopatra va Yuliya Domna kabi ayollar singari, u ham erkaklar hukmron bo'lgan dunyoda siyosiy va madaniy kuchga ega bo'lgan.

Zenobiya haqida eng qadimiy manbalar "Historia Augusta" (Rim tarixchilarining asari) hisoblanadi. Unda uning hayoti va Rim bilan bo'lgan urushlar haqida yozilgan. Shuningdek, yunon tarixchisi Zosimus ham o'z asarida Zenobiya hukmronligini tasvirlab o'tgan. Arxeologik topilmalar orasida tangalar muhim o'rin tutadi. Zenobiya davrida Palmirada zarb qilingan tangalarda uning o'g'li Vabalatning surati bilan birga imperatorlar Klavdiy Gotik va Aurelian tasvirlari mavjud. Bu tangalar uning siyosiy mustaqilligini va Rimga nisbatan tenglik da'vosini ko'rsatadi.

Zenobiya-nafaqat jangchi malika, balki o'z xalqining madaniyati va ilm-fanini rivojlantirgan ma'rifatparvar hukmdor edi. Uning davrida Palmira Yaqin Sharqdagi eng boy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Garchi u Rim tomonidan mag'lub etilgan bo'lsa-da, imperator Aurelian uning davlatni boshqarishdagi salohiyatini tan olgan va "u har

qanday erkak imperator singari adolatli va dono hukmronlik qildi” deb e’tirof etgan. Zenobiya jasorati, zakovati va mustaqillik ruhi bilan tarixda o’chmas iz qoldirgan. U qadimgi Sharqdagi eng kuchli ayol hukmdorlardan biri sifatida nom qozongan.

Palmiraliklarning eng yuqori Rim hukmdorlik unvonini qabul qilishi-ulkan jasorat va xavfli chaqiriq edi.

Stonemen ta’kidlaganidek, Zenobiya Misrda o’z nomidan tanga zarb qilgan yagona ayol hukmdor bo’lgan. U o’z naslini qadimgi Misr hukmdorlaridan deb bilgan, u yerda ayol hukmdorlar odatiy hole di. Aslida esa, Zenobiya Rimning erkaklar hukmron dunyosida o’g’lining regent(nomidan hukmdor) sifatida ikkinchi darajali rol o’ynashi kerek edi.

Suriya, ya’ni, Palmira joylashgan hudud, asrlar davomida misrliklar, bobilliklar, xetlar, ossuriyaliklar, yunonlar, forslar va rimliklar tomonidan bosib olingan. Makedoniyalik Aleksandr bu hududni miloddan avvalgi 331-yilda zabt etgan. 636-yilgacha bu yerda yunonlar, rimliklar va vizantiyaliklar hukmronlik qildilar. Aleksandr yurishlaridan so’ng ellin madaniyati Yaqin Sharqda chuqur ildiz otgan edi.

Suriyada madaniyatlar aralashuvi-yunon, rim va suriyalik unsurlarning uyg’unlashuvi kuzatilgan. Palmira ko’p millatli, kosmopolit shahar edi. Turli xalqlar xudolari bu yerda e’zozlangan. Palmiraliklar asosan Arama va Yunon tillarida so’zlashgan.

Zenobiyaning eri Odenat “Sharqning muvozanatini o’z qo’lida ushlab turgan “ hukmdor sifatida tanilgan. Agar u Rimga yordam bermaganida, imperiya Sharqdagi ustunligini yo’qotgan bo’lard. Shu sababli imperator Gallien Odenatga dux Romanorum “Rimliklarning sarkardasi” va restitutor totius Orientis “Butun Sharqning qayta tiklovchisi” unvonlarini bergan. Ammo Odenatning hayoti fojeali yakun topdi. U o’zining so’ngi g’alabasidan so’ng (267-yilda) Emesada (hozirgi Homs) amakivachchasi Maeonius tomonidan tug’ilgan kun ziyofatida fitna natijasida o’ldirilgan. Uning o’g’li Herodes ham shu fitna chog’ida halok bo’lgan. Tarixchi Zonoras va “Historia Augusta” ma’lumotlariga ko’ra, Maeonius o’zini imperator deb e’lon qilgan, ammo tez orada o’z yaqini tomonidan suiqasdga uchrab, halok bo’lgan.

Palmira “karvonlar shahri” sifatida tanilgan. Bu yerda savdogarlar va karvonsaroy egalari savdo yo’llaridan o’tuvchi karvonlardan katta boj olganlar. Palmiralik zodagonlar bu boylik evaziga hashamatli hayot kechirganlar. Ularning shaharlarida ustunli binolar, ibodatxonalar, saroylar va qabr inshootlari qad ko’targan. Palmira atrofida esa ko’chmanchi qabilalar yashagan va ular bilan tez-tez to’qnashuvlar bo’lib turgan. Hitti shunday yozadi: “Palmiralik boshliqlar cho’l shayxlaridan o’tish uchun xavfsizlik ruxsatnomalarini olishgan;

yo'lboshchilar karvonlarni sahrodan o'tkazishgan, otliq kamonchilar esa ularni Beduin hujumlaridan himoya qilganlar. Shahar esa darvozalari orqali o'tgan har bir yuk uchun yuqori boj olgan."

Palmira shunday yo'l bilan- Evfrat daryosi bilan Damashq o'rtasidagi savdo yo'li orqali o'tuvchi barcha karvonlardan olinadigan bojlar evaziga nihoyatta boylik orttirgan. Bundan tashqari, u yerda savdogar va yer egalari ijaraga olingan yerlar va bojxona imtiyozlarib orqali ham daromad olishgan. Bojxona tizimi aniq tartibga solingan, soliqlar esa shartnoma asosida yig'ilgan.

Xulosa

Zenobiya Rimga olib ketilishi bilan Palmiraning oltin davri tugadi. Rimliklar ulug'vorlikni yo'q qildilar va xazinalarni talan-taroj qildilar. Hokimiyat parchalanib, Shahar vayronaga aylangan. Zenobiya unitilmas qahramon bo'lib, uning surati Suriya banknotlarida aks etgan.

Bu buyuk sharq malikasi asosan go'zalligi, jasorati va aqlda tengsizligi bilan mashhur edi. Bundan tashqari, u aqlli va harakatchan hukmdor bo'lib, o'z davrining ayollariga yaxshi o'rnak bo'la olgan.

Kleopatra va Zenobiya kabi antik davrning taniqli ayollari haqida Hughes-Hullet shunday deydi: ular hatto o'z hayotlarida ham "irq va jinsning bir-biriga o'xshash ikkita shovinizmiga duchor bo'lishgan". Rimning chet elliklar va ayniqsa ayollarga nisbatan g'ururiga qaramay, Zenobiya ularning hurmatiga sazovar bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beard, M R 1973. Women as Force in History: A study in Traditions and Realities.
2. Birley, A 1988. The African Emperor: Septimius Severus.
3. Bowersock, G W 1983. Roman Arabia. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press.
4. Braund, D 1984. Rome and the Friendly King: the Character of the Client Kingship. London & Canberra: Croom Helm.
5. Bounni, A 1985. "Palmira: the Caravan City". In Weiss, H Ebla to Damascus: Art and archeology of ancient Syria... Washington, D.C..Smithsonian Institution Travelling Exhibition Service: 380-385
6. Breton, J-F 2004. "Zenobie, reine de Palmyre". In Historie Antique 15;20-26

-
7. Colladge, Mar 1976. The Art of Palmira. London. Westview Press.
8. Hitti, P K 1959. SYRIA: A Short History. London. Macmillan.
9. Hitti, P K 1970. History of the Arabs. 9th Edition. London.: Macmillan
10. Hughes-Hallet, L 1990. Cleopatra: Histories, Dreams and Distortions.London: Pimlico.

